

BO`LAJAK BOSHLANG`ICH SINIF O`QITUVCHILARI KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O`RNI

Saidova Nigora Olimovna

FarDu Maktabgacha ta`lim kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7056012>

Annotatsiya: Ushbu maqola bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kompetentligini oshirish masalalariga, shu jumladan bu jarayonda axborot texnologiyalar, innovatsiyalarni qo`llashning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so`zlar: fanga oid kompetensiyalar, metodik kompetensiyalar, maxsus kompetensiyalar, psixologik-pedagogik, me`yoriy-huquqiy, reflektiv.

Ma`lumki, Yangi O`zbekiston qurish sharoitida rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo`llab-quvvatlash bo`yicha xalqaro tajribani o`rganish masalasi ta`lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish hamda ularning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish bilan bog`liq holda ta`limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kasb ta`limida kompetensiyaviy yondashuv o`z mohiyatiga ko`ra modulli-kompetentli hisoblanadi. A.K.Markovaning shaxsiy-vazifali modulli yondashuvi o`zida modulli o`qitishning innovatsion pedagogikasiga yo`l ochib, modulni yanada keng talqin etish imkoniyatini ifodalaydi . Agar modul insondan muayyan psixologik sifatlarni talab etuvchi tadqiqotchilik vazifa (tadqiqotchilik funksiya) bo`lsa, unda ixtiyoriy, jumladan pedagogik kasbni eng sodda hosilalargacha tabaqalashishi («kubiklar») yoki aksincha yirik birliklar, supermodullarga («bloklarga») integratsiyalanishi mumkin bo`lgan modullar majmui sifatida ifodalash mumkin.

Ta`lim oluvchilarning mazkur vazifa-modullarni egallashlari bo`lajak ish uchun zarur psixologik-tadqiqotchilik sifatlarni egallash bilan birga ta`lim, tarbiya jarayonini tashkil etadi. Falsafiy- metodologik jihatdan biz bunda Dekart tamoyillaridan biriga rioya etamiz: «men tomonimdan tadqiq etiladigan har bir qiyinchilikni imkoni mavjud bo`lgan qismlargacha ajratish, ularni yaxshiroq yengish uchun kerakdir».

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Me`yoriy-huquqiy kompetensiya. Uning mazmuniga o`qituvchi-ta`lim oluvchi, o`qituvchi-ota-ona sohasidagi muayyan me`yoriy munosabatlarni egallaganlikni, bola huquqlari va kattalarning bolalarga nisbatan majburiyatlari to`g`risidagi asosiy hujjatlardan foydalanish bilim va malakalarini (Bola huquqlari

to'g'risidagi Konvensiya, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun), insonning insonga, jamiyatga va tabiatga munosabatini tartibga soluvchi axloqiy va huquqiy me'yorlarni egallaganlik, ekologik va huquqiy madaniyatga egalikni kiritamiz.

Refleksiv kompetensiyalar mazmuniga quyidagilar kiradi: o'z ishini va ta'lim oluvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash malakasi, o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi undash va o'zini-o'zi amalga oshirish. U pedagogning shaxsiy yutuqlarining tartibga soluvchisi, shuningdek, kasbiy o'sish va pedagogik mahoratni takomillashtirishga undovchi bo'lib hisoblanadi. Refleksiv kompetensiya alohida maxsus kompetensiyalar bilan bevosita integratsiyalashgan .

Maxsus kompetensiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchisini boshqa pedagoglardan farqlaydi va qo'shimcha o'rganishni talab etadi. Biz uning mazmunini quyidagicha belgiladik:

a) fanga oid kompetensiya – boshlang'ich ta'lim kursi mazmunining ilmiy asoslariga oid bilimlarini qo'llashga tayyorgarlik, o'quv faniga ijobiy munosabat, o'quv materialini mazmuni bilan o'zaro aloqadorlikda zarur hajmdagi maxsus tushunchalarni ongli egallaganlik, fan bo'yicha ilmiy axborotni tushunish va tizimlashtirish malakasi; o'quv fani mazmunini ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish malakasi.

b) metodik kompetensiya – o'quv fani bo'yicha o'quv materialini rejalashtirish, tanlash, sintezlash va qurishga tayyorlik, o'quv fani bo'yicha mashg'ulotlarning turli shakllarini tashkil etishga tayyorgarlik, ta'lim olishga faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirishga tayyorgarlik va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv ishlarini tashkil etish malakasi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llashga tayyorgarlik, o'qitishning sog'liqni saqlash texnologiyalarini malakali qo'llash .

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompetentligi tuzilmasini aniqlashga bunday yondashuvda uni ta'limning yangi mazmunini hamda yangi o'quv rejalari, dasturlarini ishlab chiqishda, darsliklar yozishda foydalanish, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda unga tayanish hamda yosh mutaxassisning moslashish davrini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati kichik yoshdagi o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati ko'p qirrali hodisa bo'lib, ta'lim jarayoniga yangiliklarni

kiritish bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ko'plab boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyinchiliklarga duch keli- shadi, bu birinchi navbatda kichik yoshdagi o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga bog'liq. Bu boshlang'ich maktabdagi innovatsiyalarning xos xusu- siyatlari va tabiatida bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi.

Innovatsiyalar mazmuni va namoyon bo'lish shakllari jihatidan xilma- xildir:

- faoliyat turlari bo'yicha: pedagogik, boshqaruv;
- kiritilgan o'zgarishlarning xarakteriga ko'ra: radikal kombinatsion, modifikatsiya;
- kiritilgan o'zgartirishlar ko'lami bo'yicha: mahalliy, modulli, tizimli;
- foydalanish ko'lami bo'yicha: yagona, tarqoq;
- yuzaga kelish manbasiga ko'ra: tashqi, ichki .

Boshlang'ich sinflardagi innovatsiyalar, birinchi navbatda, kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Samarali innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zamonaviy boshlan- g'ich sinf o'qituvchisi uning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishi, uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahoratni kashf etishi muhimdir. Boshlan- g'ich maktab o'quv jarayonida faol va interfaol o'qitish usullaridan foydalanish innovatsion hisoblanadi

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlovida innovatsiyalarning joriy etilishi kichik yoshdagi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ta'lim texnologiyalarini yangilash, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, davlat buyurtmasini bajarishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2014. – B. 104.
2. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2013.
3. Asadov Yu.M. va b. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari. – T.: Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2016.
4. Abdullaeva B.S. Akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurlarinirivojlantirish(umumlashtiruvchidarslarmisolida):Dis ped. fan. nom. –Toshkent:TDPU, 2012.

5. Nigora Olimovna, S. (2022). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA HAR BIR YOSH GURUHIDA TEVARAK ATROFNI IDROK ETISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Results of National Scientific Research, 1(1), 115–119.
6. Olimovna, S. N. (2022). FORMATION OF QUANTITATIVE REPRESENTATIONS IN THE SECONDARY GROUPS IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(01), 58-60
7. Саидова, Нигора Олимовна, Рустамова, Шохсанам Шухратжон Кизи МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МАТЕМАТИК ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagibolalarda-matematik-tushunchalarni-shakllantirishning-zamonaviy-tehnologiyalari> (дата обращения: 15.06.2022).
8. МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARNING МАТЕМАТИК QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. NO Saidova, MS Yigitaliyeva. Results of National Scientific Research (2022)1 (3), 53-59
9. THE SOCIOLOGICAL NATURE OF THE ADDRESS. ГВ Авазовна. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) (2022). 7 (7), 81-86
10. Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. V GIYOSOVA. Scientific journal of the Fergana State University (2019) 1 (6), 124-126
11. Классификация сказок о животных по их структурно-семантическому признаку. ГВ Авазовна. Преподавание языка и литературы (2021) 1 (8), 74-77
12. Polysemy-Semantic Universal. UN Rustamovna, MO Tohirjonovna. International Journal of Culture and Modernity (2022) 14, 11-15
13. VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN. MO Tokhirjonovna. Modern Journal of Social Sciences and Humanities (2022) 5, 375-379
14. МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ MUASSASASINING HAR XIL YOSH GURUHLARIDA ELEMENTAR МАТЕМАТИК TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHGA OID ISHLARNI TASHKIL QILISH. NO Saidova. Academic research in educational sciences (2021) 2 (11), 1612-1614